



Ammo yuqorida keltirilgan me’yoriy hujjatlarda ko’rsatilgan hisobiy ko’rsatkichlar qiymati zichlashish koefitsientining qaysi qiymatiga to’g’ri kelishi takidlanmagan. Bu o’z navbatida loyihachilar tomonidan qumli gruntlarda yo’l to’shamasini loyihalashda bir qator noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda. Ya’ni qumli gruntlardan foydalanib yo’l poyi qurilganda yo’l to’shamasining xizmat muddatidan avval buzilishiga olib keladi. Shuning uchun yo’l poyi qumli gruntlari uchun hisobiy ko’rsatkichlarni ularning zichlashish koefitsientiga bog’liqligini o’rganish va ularni belgilash to’g’risida yo’riqnoma ishlab chiqish hozirgi vaqtning dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblanadi. Bu vazifani Surxondaryo viloyati avtomobil yo’llari misolida yechishga harakat qilindi.

Adabiyotlar:

1. ShNQ 2.05.02-07 “Avtomobil yo’llari” “Davarxitektqurilish”, Toshkent sh., 2008 y., 89-bet
2. MQN 46-2008 «Nobikir yo’l to’shamalarini loyihalash bo’yicha yo’riqnoma», “O’zavtoyo’l” DAK Avtomobil yo’llari ilmiy-tekshirish instituti, T., 2008 y.
3. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(1), 470-475.

UDK 631.521.633.11.

LALMIKOR YERLARDA MOYLI ZIG’IR SELEKSIYASIDA MUHIM YO’NALISH

Oripov Sherali Xolboevich q.x.f.f.d, k.i.x,
Poyonov Azizbek Berdimuradovich doktorant,
Lalmikor dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
+ e-mail: uzniizerno@yahoo.com

Annotatsiya: Maqolada lalmikorlikning qir adirlik mintaqalarida moyli zig’ir seleksiyasida olingan asosiy natijalar to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar. Nav, lalmikor, ekin, moyli zig’ir, urug’chilik, navdorlik, avlod, oila, tizma, andoza, xosildorlik.

**THE MEIN DIRECTIONS OF BREEDING OF OIL FLAX ON THE RAINFED
CONDITIONS**

Phd, Oripov Sherali Kholbaevich
Poyonov Azizbek Berdimuradovich
Scientific Research Institute of Rainfed agriculture
+ e-mail: uzniizerno@yahoo.com

Annotation: The article presents an analysis of the research results oil flax breeding varieties oil crops rein fed conditions

Key words. Vareity, rain fed, Oil flax, seed production, progeny, line, standard, yielding.

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЕ СЕЛЕКЦИИ МАСЛИЧНОГО ЛЬНА В УСЛОВИЯХ
БОГАРЫ**

Phd, Орипов Шерали Халбаевич
докторант, Поёнов Азизбек Бердимуратович
Научно- исследовательский институт Богарного земледелия
+ e-mail: uzniizerno@yahoo.com

Аннотация: В статье представлены результаты селекции масличного льна в условиях равнинно холмистого зон богары.

Ключевые слова. Сорт, богара, культура, масличный лен, семеноводства, потомства, линия, стандарт, урожайность.



Kirish

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jumladan, ekologik toza o‘simlik moyiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida, moyli ekinlarni etishtirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda. Shuningdek, yog‘- moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish, hususan xorijiy davlatlar seleksiyasiga mansub noan‘anavy ekin turlarini respublikamiz hududlarining tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda joriy qilishni talab etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek o‘simlik moyi ishlab chiqarish aholining o‘simlik moyiga bo‘lgan talabini ta‘minlashda lalmikor maydonlar uchun iqlim o‘zgarishiga mos bo‘lgan moyli ekinlar jahon va mahalliy namunalarini o‘rganish, tanlash va orqali ertapishar, hosildor, qurg‘oqchilikka chidamli va moy miqdori yuqori yangi nav va boshlang‘ich ashyolarini yaratish seleksioner olimlar oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi [1].

So‘ngi yillarda moyli zig‘ir ishlab chiqarish hajmi bir necha barabar ko‘payib, yuqoridagi etakchi davlatlar hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z navbatida insonlarning o‘simlik moyiga jumladan zig‘ir moyiga bo‘lgan talabning yuqoriligidan dalolat ma‘lumotlarda kiritilgan.

FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda moyli zig‘ir etishtirish bo‘yicha Qozog‘iston, Kanada, Rossiya, Xitoy, Hindiston, AQSh va Efiopiya etakchilik qilishini ta’kidlaydi [2].

Tadqiqotning maqsadi: Lalmikorliknig qir adirlik mintaqalarida ekish uchun moyli zig‘irning kasallik va zararkunadalariga chidamli, serhosil urug‘i tarkibida moy miqdori ko‘p bo‘lgan yangi navlarini yaratishdan iborat.

Materiallar va uslublar: Moyli ekinlar jahon kolleksiyasi va seleksiya jarayonlarini o‘rganish Butunittifoq O‘simlikshunoslik instituti (1976), Moskva, Fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholashlar, taxlillar Davlat nav sinash komissiyaning Методика Государственного сортоиспытания Масличных культур. Выпуск третий (1983 г) uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borildi. Tajribalarda olingan raqamli natijalar B.A.Dospexov (1985) uslubida statistik tahlil qilindi [3].

Tajriba yillarida yillik yog‘ingarchilik miqdorining turlicha bo‘lganligi tushishi esa moyli ekinlar maxsuldorligini belgilovchi xosil elementlari rivojining (shoxlanish soni, ko‘saklar soni va ko‘saklardagi urug‘lar sonining ko‘payishiga) turlicha bo‘lganligi kuzatildi.

Natijalar va munozara: Tajribalar Lalmikor maydonlarda moyli zig‘irning ertapishar, qurg‘oqchilikka chidamli, moydorligi yuqori, hosildor nav va boshlang‘ich ashyolarini yaratish bo‘yicha olingan natijalar asosida Janubiy dexqonchilik ITI ning Qamashi tajriba uchastkasida olib borildi. Tajribalarni ekish maqbul muddatlarda mart oyining (10-12mart) birinchi va ikkinchi yarmida amalga oshirildi. Namunalar pitomnigida namunalarni ekish urug‘ miqdoriga qarab 1 qatordan 2 metr uzunlikda qo‘lda ekish bilan amalga oshirildi.

Nav va tizmalarining 1000 dona don vazni yillar bo‘yicha turlicha bo‘lganligi kuzatildi. Yillar kesimida moyli zig‘ir nav va tizmalarining 1000 dona don vazni tahlil qilinganda 4,02-5,51 g gacha bo‘lganligi tajriba natijasida aniqlandi. Andoza Baxorikor navida esa 3-yillik olingan natijalar bo‘yicha o‘rtacha 5,00 g gacha bo‘lganligi tajribalarda ko‘zatildi.

1-жадвал

Moyli zig‘ir nav va tizmalarining 1000 dona don vazni va xosildorlik bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar (Qamashi 2022-2024-yy.).

№	Hav va tizmalar	1000 dona don vazni g				Hosildorlik s/ga			
		2022 yil	2023 yil	2024 yil	O‘rt acha	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O‘rt acha
1	Baxorikor (andoza)	5,02	4,57	5,41	5,00	8,13	5,73	6,45	6,77
2	KR22-FLAXPYT-IR-01	5,43	5,28	5,69	5,46	6,53	5,73	6,53	6,26
3	KR22-FLAXPYT-IR-02 (Moydor-23)	5,21	5,56	5,76	5,51	10,37	7,80	8,65	8,94
4	KR22-FLAXPYT-IR-03	4,21	4,19	4,29	4,23	6,60	5,10	5,63	5,77
5	KR22-FLAXPYT-IR-04	4,18	4,84	4,02	4,35	5,62	5,38	4,95	5,32
6	KR22-FLAXPYT-IR-05	4,95	5,44	4,58	4,99	5,85	4,60	5,85	5,43
7	KR22-FLAXPYT-IR-06	3,56	4,22	5,33	4,37	6,08	4,86	6,08	5,68
8	KR22-FLAXPYT-IR-07	4,46	4,28	4,41	4,38	5,61	4,71	5,15	5,16
9	KR22-FLAXPYT-IR-08	5,22	5,13	5,13	5,16	8,68	7,25	7,58	7,84



10	KR22-FLAXPYT-IR-09	4,92	4,83	5,62	5,12	6,41	4,24	4,98	5,21
11	KR22-FLAXPYT-IR-10	4,12	3,80	4,23	4,05	6,24	4,58	4,65	5,16
12	KR22-FLAXPYT-IR-11	4,36	3,96	4,63	4,32	5,92	4,91	5,37	5,40
13	KR22-FLAXPYT-IR-12	4,18	4,55	4,82	4,52	5,35	5,19	5,75	5,43
14	KR22-FLAXPYT-IR-13	5,08	5,08	5,55	5,24	8,40	6,83	7,56	7,60
15	KR22-FLAXPYT-IR-14	5,48	5,52	5,47	5,49	8,70	6,51	8,65	7,95
16	KR22-FLAXPYT-IR-15	4,12	4,14	4,65	4,30	4,71	4,82	4,71	4,74
17	KR22-FLAXPYT-IR-16	4,46	4,30	4,49	4,42	5,72	4,62	5,63	5,32
18	KR22-FLAXPYT-IR-17	4,16	4,46	5,44	4,69	4,59	4,88	4,65	4,71
19	KR22-FLAXPYT-IR-18	3,63	4,60	4,91	4,38	4,31	4,39	4,70	4,47
20	KR22-FLAXPYT-IR-19	4,45	4,95	4,68	4,69	6,80	6,34	6,88	6,67
21	KR22-FLAXPYT-IR-20	4,51	5,60	4,77	4,96	7,35	5,18	6,55	6,36
22	KR22-FLAXPYT-IR-21	4,52	4,71	4,63	4,62	4,77	4,90	4,77	4,81
23	KR22-FLAXPYT-IR-22	4,65	5,33	4,63	4,87	5,87	6,20	5,87	5,98
24	KR22-FLAXPYT-IR-23	5,12	5,09	5,15	5,12	8,53	7,18	7,93	7,88
25	KR22-FLAXPYT-IR-24	4,35	4,90	5,32	4,86	5,46	5,16	5,46	5,36
26	KR22-FLAXPYT-IR-25	3,72	4,02	4,31	4,02	6,77	4,62	5,68	5,69
27	KR22-FLAXPYT-IR-26	5,25	5,46	4,82	5,17	8,22	5,49	6,67	6,79
28	KR22-FLAXPYT-IR-27	4,52	4,13	4,76	4,47	6,58	5,30	5,22	5,70
29	KR22-FLAXPYT-IR-28	4,46	3,77	5,21	4,48	6,40	4,94	4,62	5,32
30	KR22-FLAXPYT-IR-29	4,17	4,92	4,77	4,62	5,75	4,80	4,82	5,12
	Eng yuqori ko’rsatkich	5,48	5,60	5,76	5,51	6,5	7,80	8,7	8,94
	O’rtacha ko’rsatkich	4,58	4,76	4,92	4,75	6,5	4,71	6,0	6,06
	Past ko’rsatkich	3,56	3,77	4,02	4,02	4,3	3,04	4,6	4,47
	EKF₀₅	0,15	0,13	0,14	0,14	0,262	0,20	0,17	0,21
	EKF₀₁	3,29	2,79	2,49	2,85	4,513	3,78	2,51	3,60

Andoza nav sifatida olingan Baxorikor naviga nisbatan tizmalarda 0,12-0,51 g gacha 1000 dona don vazni yuqori bo’lgan tizmalar tajriba natijasida aniqlandi. Olib borilgan tajriba natijalaridan ma’lum bo’ldiki har bir o’simlikdagi ko’sakchalar soni, ko’sakcha ichidagi donlar soni bir tup o’simlikdagi donlar og’irligi, 1000 dona don vazni va hosildorlikni belgilavchi asosiy omillardan biri ekanligini isbotlagan.

Tajribalarda 1000 dona don vazni bo’yicha yillar bo’yicha o’rtacha ko’rsatkichlar tahlil qilinganda andoza Baxorikor navida 5,00 g ni tashkil etib KR22-FLAXPYT-IR-01, tizmasida 5,46 g, KR22-FLAXPYT-IR-02 (Moydor-23) 5,51 g, KR22-FLAXPYT-IR-08 5,16 g, KR22-FLAXPYT-IR-09 5,12 g, KR22-FLAXPYT-IR-13? 5,24 g, KR22-FLAXPYT-IR-08, KR22-FLAXPYT-IR-14, 5,49 g, KR22-FLAXPYT-IR-23 5,12g va KR22-FLAXPYT-IR-26, 5,17 g gachani tashkil etib 1000 dona don vazni andoza naviga nisbatan 0,12-0,51 g gacha yuqori bo’lganligi aniqlandi. Andoza Baxorikor naviga nisbatan past ko’rsatkich 22 ta tizmalarda aniqlandi va yog’in miqdori kam bo’lgan yillarda 1000 dona don vazniga ta’sir ko’rsatganligi tajribalarda o’z isbotini topdi.

Tajriba natijalariga ko’ra tadqiqot yillarida moyli zig’ir nav va tizmalarining hosildorlik ko’rsatkichlari tahlil qilinganda o’rtacha 4,47-8,94 u/ga gacha bo’lganligi aniqlandi. Andoza navga nisbatan taqqoslanganda hosildorlik ko’rsatkichlari 1,07-2,17 u/ga gacha yuqori hosil olindi.

Xulosa

1. Tajribalarda moyli zig’ir nav namunalarining 1000 dona don vazni bo’yicha tahlili natijasida o’rganilgan tizmalarda o’rtacha 4,02-5,51 gr gachani tashkil etganligi kuzatildi, KR22-FLAXPYT-IR-02 (Moydor-23) va tanlab olingan 7 ta tizmalarda esa andoza “Baxorikor” navga nisbatan 1000 dona don vazni 0,12-0,51 g gacha yuqori bo’lganligi aniqlandi.

2. Hosildorlik ko’rsatkichlari bo’yicha o’rganilgan tizmalar tahlil qilinganda o’rtacha 4,47-8,94 u/ga gacha, andoza “Baxorikor” navida esa hosildorlik ko’rsatkichlari o’rtacha 6,77 u/gani tashkil etgan bo’lsa KR22-FLAXPYT-IR-02 (Moydor-23) va o’rganilgan 5 ta tizmalarda hosildorlik ko’rsatkichlari bo’yicha 0,2-2,17 u/ga gacha yuqori bo’lganligi isbotlandi.

3. Moyli zig’ir nav vanamunalarini o’rganish bilan birga morfologik belgilari bo’yicha kuzatuvlar olib borilib tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari yakuni bo’yicha ulardan selekuiyaning turli yo’nalishlari uchun birlamchi manbalar ajratib olindi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. <http://strategy.regulation.gov.uz/ru/document/>. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14-iyuldagi №438 sonli Respublikamizda moyli ekinlar etishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori sharhi.
2. Oripov Sh.X, va boshqalar, “Lalmikor mayonlarda moyli ekinlarni etishtirish agrotexnologiyasi” bo‘yicha tavsiyanoma “Taffakur” nashriyoti 2019 yil. 4-5 betlar.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта, - М. Колос, 1978 г.
4. Lalmikor dextqonchilik ITI ning ilmiy-xisobotlar to‘plami 2015-2024 yy.
5. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. *Kelajak o‘qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 36-40.

UCHINCHI TILNI O‘RGANISH JARAYONIDA XATOLARNING KOGNITIV-LINGVISTIK SABABI SIFATIDA SEMANTIK INTERFERENSIYA

Askarova Shakhnoza Ismailovna

Dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Farg‘ona davlat universiteti

E-mail: askarovasch@gmail.com | Tel.: +99 6044750

Annotatsiya: Maqolada semantik interferensiya fenomeni uchinchi xorijiy tilni (L3) o‘zlashtirish jarayonida xatolar kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri sifatida tahlil qilinadi. Psixolingvistika va kognitiv lingvistika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarga tayanib, muallif ko‘p tilli ongda til tizimlarining o‘zaro ta’sir mexanizmlarini tahlil qiladi, semantik siljish turlarini va ularning interlingvistik ma’nolar shakllanishiga ta’sirini ochib beradi. Alohida e’tibor leksik daraja va konseptual tuzilmalardagi semantik interferensiyaning roliga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: semantik interferensiya, uchinchi til, kognitiv lingvistika, tillararo ta’sir, o‘zlashtirishdagi xatolar.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ КАК КОГНИТИВНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИЧИНА ОШИБОК ПРИ ОБУЧЕНИИ ТРЕТЬЕМУ ЯЗЫКУ

Аскарова Шахноза Исмаиловна

Доцент, д.ф.ф.н. PhD, Ферганский государственный университет

e-mail: askarovasch@gmail.com Тел.: + +99 6044750

Аннотация: В статье рассматривается феномен семантической интерференции как один из ключевых факторов, вызывающих ошибки при усвоении третьего иностранного языка (L3). Опираясь на исследования в области психолингвистики и когнитивной лингвистики, автор анализирует механизмы взаимодействия языковых систем в многоязычном сознании, выявляет типы семантических сдвигов и их влияние на формирование межъязыковых значений. Особое внимание уделяется роли семантической интерференции на уровне лексики и концептуальных структур.

Ключевые слова: семантическая интерференция, третичный язык, когнитивная лингвистика, межъязыковое влияние, ошибки усвоения.

SEMANTIC INTERFERENCE AS A COGNITIVE-LINGUISTIC CAUSE OF ERRORS IN THIRD LANGUAGE ACQUISITION

Askarova Shakhnoza Ismailovna

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Fergana State University

E-mail: askarovasch@gmail.com | Tel.: +99 6044750